

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**  
**JAHON TARIXI KAFEDRASI**

3-kurs “B” guruhi talabasi

**OXUNJONOV ZIYODULLO**

**XV-XVII ASR O‘RTALARIDA YEVROPALIK**  
**SAYYOHLAR TOMONIDAN QILINGAN YIRIK**  
**GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR TARIXIDAN**

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha)  
ta‘lim yo‘nalishi

**KURS ISHI**

Ish rahbari: o‘qituvchi G. A. Mamasoliyeva

Andijon – 2016 yil

## **Reja:**

### **Kirish**

**1. Bartolomeo Diash va Vasko da Gamaning geografik  
Kashfiyotlari**

**2. Xristofor Kolumb tadqiq qilgan hududlar**

**3. Magellan va Dreykning dunyo bo'ylab sayohatlarining tarixiy  
ahamiyati**

### **Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

## KIRISH

Kurs ishida yangi hududlarning kashf qilinishi Hindiston va Amerikaga olib boriladigan dengiz yo'llarining jahonshumul tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish, yerning shar shaklida ekanligining isbotlanishi, buyuk sayyohlarning faoliyatini yoritish orqali tarix darslarida ma'naviy tarbiya ishlarini olib borishdan iboratdir.

Bugungi kunda halqaro maydonda turli shakllarda namoyon bo'layotgan bunday maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan qo'shilib bormoqda. Jahon hamjamiyati halqaro munosabatlar sohasida, demokratiya, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini qaror toptirishi uchun kurashmoqda.

Bu o'rinda Yevropaning bir qator mamlakatlarini XV-XVII asr o'rtalaridagi buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik siyosatini eplash zarur.

Buyuk geografik kashfiyotlar-XV-XVII asr o'rtalarida Yevropalik sayyohlar tomonidan qilingan yirik geografik kashfiyotlar uchun qabul qilingan shartli atama.

XV asr ikkinchi yarmida O'rta dengiz orqali bo'ladigan savdo qattiq inqirozga uchradi. Sharq mollari arablar, vizantiyaliklar va boshqa xalqlarning qo'lidan o'tganligi tufayli ularning narxi benihoya oshib ketardi. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi savdogalar juda uzoqdagi Sharq bozorlariga borishlari amrimohol edi. Yaqin Sharqning turklar tomonidan istilo qilinishi levant ahvolini yanada mushkullashtirdi. Turklarning talonchiligi, dengiz qaroqchligi, savdo kemalaridan, karvonlar va bozorlardan juda ko'p hilma - xil soliqlar olinishi tufayli O'rta dengizning sharqiy qismi bilan savdo qilishi havfli, kam foyda keltiradigan bo'lib qoldi va bu savo ahyon - ahyondagina bo'lib turdi.

Hindistonga olib boradigan, hali turklar bosib olmagan birdan - bir yo'l – Misr orqali va Qizil dengiz orqali boradigan yo'l qolgan edi xolos.

Ammo bu yo'l arablarning qo'lida edi. G'arbiy Yevropaning dengiz savdogarlari arablar bilan turklarga duch kelmasdan Hindistonga boradigan boshqa yo'l topish ustida tobora ko'proq bosh qotira boshadilar.

Afsonaviy Hindistonni qidirib topishga yevropaliklarni yana boshqa bir sabab ham qiziqtirgan edi.

Yevropa mamakatlarida tovar ishlab chiqarishining o'sishi, tovarlarning yetishmasligi, hamda kumush, ziravolar va fil suyagi, qimmatbaho mo'yna, morj tishini topish maqsadida yangi yerlarni qidirish, Yevropadan Hindistonga va Sharqiy Osiyoga yangi savdo yo'llarini axtarish kabilar ekspeditsiyaga borishning umumiy sabablari bo'lgan.

Ispaniya va portug'aliyalikar buyuk geografik kashfiyotlarning yo'lchi yulduzlari bo'ldilar. Mavzuning mazmunini tashkil etgan G'arbiy Yevropalik sayyohlardan Bartolomeo Diash, Xristofor Kolumb Vasko da Gama, Fernan Magellan va Frensis Dreyklarning faoliyati va ularning kashfiyotlari haqida so'z boradi.

Bu sayohatlarning kashfiyotlari buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi yuz yillik davrining muhim voqealari hisoblanadi. 1488 yil portug'aliyalik dengizchilar Afrikani barcha g'arbiy va janubiy sohillarini tekshirdilar. ( Bartolome Diash va boshqalar ) 1492 – 1494 yillarda Xristofor Kolumb Bagama orollarini, katta va kichik orollarni kashf qildi. 1497 – 1499- yillarda Vasko da Gama G'arbiy Yevropadan Janubiy Afrika bo'ylab Hindistonga uzliksiz dengiz yo'nalishini ochdi.

1519 – 1522- yillarda Fernan Magellan va uning safdoshlari Amerikaning janubiy chekkasi bo'ylab bo'g'oz orqali (keyinchalik Magellan bo'g'ozi deb ataldi) dunyo bo'lab birinchi sayohat qildi. Frensis Dreyk – ingliz dengiz sayyohi, 1588 - yilda vitse - admiral, 1577 – 1580- yillarda Magellandan so'ng ikkinchi bo'lib dunyo bo'ylab suzib chiqqan.

Kurs ishimizga aloqador adabiyotlar sharxini berib o'tamiz. Adabiyotlar umumiy, asosiy va qo'shimcha manbalarga bo'linadi. Dastlabki kitob prezidentimiz Karimov I.A. qalamiga mansub "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asaridir. Bu kitob umumiy manbalar sirasiga kirib, O'zbekistonda tarix fanini o'qitish va o'rgatish yo'lida barcha tarixchilarga metadalogik manba vazifasini o'taydi. "Istoriya srednix vekov" va A.Liyelaysning "Dengiz sargushatlari" asarlari mavzuimizga oid turli ma'lumotlar, Kolumb haqida va Buyuk geografik kashfiyotlarga olib kelgan omillar haqida asosiy ma'lumotlar ham berilgan.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" to'plamlari Davlat Ilmiy Nashriyoti tomonidan 2000-2005- yillar mobaynida "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" o'nta tomi nashr etildi. Mavzuni yoritishda Milliy Ensiklopediyadan unumli foydalanildi. Hususan mavzuimizda uchraydigan tarixiy atamalarning izohlari aynan Milliy Ensiklopediya to'plamlari ma'lumotlari asosida sharhlab berildi. Milliy Ensiklopediyada Fernan Magellan, Vasko da Gama, Frensis Dreyk va Xristofor Kolumbga alohida sahifa ajratilgan, ularning surati ham berilgan. Bu kitoblardan mavzuga dahldor ma'lumotlar terib olingan. Milliy Ensiklopediyalar eng yangi davrda chop etilgani uchun ulardagi ma'lumotlarni oldingi Ensiklopediyalarda berilgan ma'lumotlardan ko'ra batafsil deb hisoblaymiz. Milliy Ensiklopediya to'plamlari qo'shimcha manba vazifasini o'taydi. Va nihoyat internet ma'lumotlari- ular qisqa xronologik ma'lumotlar va sanalardan iborat. Internet ma'lumotlari bilan asosiy kitoblardagi ma'lumotlar bir xil shu bois Internet ma'lumotlaridan qo'shimcha manba sifatida foydalandik.

## **1. BARTOLOMEO DIASH VA VASKO DA GAMANING GEOGRAFIK KASHFIYOTLARI**

Portug'allarning 1482- yil Gveniyadagi oltin sohildagi mustamlakasi, fort-San- Jorjida –Mina (Avliyo Georiykoni) tashkil qilishdi. Chunki bu yerda yirik oltin konlari topildi. Tez orada harbiylarda Oltin qirg'oq bilan bir qatorda fil suyagi qirg'og'i, Qalampir qirg'og'i, Tutqunlar qirg'og'i paydo bo'ldi. Qalampir qirg'og'i deyilishining sababi- bu yerga afrikaliklar ayriboshlash uchun osiyo qalampirlariga o'xshash hushbo'y hidli urug'lar keltirib turilgan. Afrikaning dengiz qirg'oqlariga qo'yilgan bu nomlarning o'ziyoq portug'allarning asl maqsadlarini, qiyofalarini yaqqol ko'rsatib turubdi.

Portug'allar ekvatorni kesib, o'tib Kongo daryosining quyilish joyi ya'ni mansabini kashf etdilar. Ular Kongo daryosining mansabidan okean sohili bo'ylab janubga qarab suzib, Afrikaning ekvatoridan to 220<sup>0</sup> janubiy kenglikkacha bo'lgan, ilgari o'rganilmagan g'arbiy qirg'og'ini tekshirib chiqdilar. Portug'aliya qiroli 1487- yilda Bartolomeo Diash qo'mondonligi ostida uch karavellani janubiy dengiz yo'li bo'ylab safarga chiqardi.

Diash Mina portidan chiqib, janubiy tropikni kesib o'tdi, so'ngra sahrodan iborat bo'lgan yangi qirg'oqni ochdi. Mana shu yerda daxshatli bo'ron ko'tarilib, Diashning ikki karavellasini ochiq okeanga surub ketdi. Shiddatli bo'ron ularni janubga qarab olib ketaverdi, qirg'oq ko'rinmay qoldi, Diash uni qayta topa olmadi. Shunda u Afrikaning janubiy qismini allaqachon o'tib bo'ldik deb o'yladi. Haqiqatdan ham shunday bo'ldi. Bartolomeo Diash shu yerda sohilga yetib olgach, qirg'oq bo'ylab sharqqa tomon suzib bordi va tezda Hind okeanida ekanligini angladi. Shundan so'ng u orqaga qaytib, Afrika orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'li ochilganligi to'g'risidagi quvonchli xabarni vataniga olib keldi. Shunday qilib, antik dunyo olimi Ptolomeyning Afrika qit'asi janubiy qutbigacha cho'zilib ketgan, Hind okeani esa yopiq havzadir, degan ta'limoti noto'g'ri ekanligi isbot etildi .

Bartolomeo Diash Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasidagi burunda ikki hafta davom etgan shtormni boshdan kechirdi. Shuning uchun bu joyni "Tormento zu" (Bo'ronlar burni) deb ataldi. Lekin ekspeditsiya Lissabonga qaytib kelgach, qirol uni "Yaxshi Umid burni" deb atash to'g'risida buyruq berdi. Biroq Hindistonga tez yetib olishi umidining ro'yobga chiqishi oson emas edi, chunki Lissabonni Afrikaning eng janubiy nuqtasidan o'n minglarcha kilometr masofa ajatib turardi. Yaxshi Umid Burnidan hindistongacha yana qancha suzish kerakligini hech kim bilmaydi. Portug'ar bir necha yil davomida oldinga tomon harakat qilishga hech jur'at qila olmadilar. Ular Vasko da Gamaning Hindistonga, uzoq Osiyo qirg'oqlariga qiladigan mislsiz sayohatlari oldidan kuch quvvatlarini to'plab, nafaslarini roslayotganga o'xshadilar.

Portug'aliyaning Afrika sohillarini o'zlashtirishdagi muvafaqqiyatlari Ispaniyada ham katta qiziqish uyg'otdi. Bu ikki mamlakat o'rtasida davlat boshliqlarini qon- qarindoshlik iplari bog'lab tursa ham, dushmanlik va gina- adovat hukm surardi. Portug'aliya qirol o'z dengizchilariga Afrika qirg'oqlariga yaqinlashishga jur'at etgan har qanday chet el kemasini shavqatsizlik bilan cho'ktirib yuborishga buyruq berdi. Portug'allar Afrika qit'asi sohillarni, Hindistonga boriladigan janubiy dengiz yo'lini o'z mulki hisoblab, ularni hech kim bilan baham ko'rishni hohlamasdilar .

Vasko da Gama Portug'al dengizchi sayyohi Yevropadan Hindistonga Afrikani aylanib boradigan dengiz yo'lini ochgan. U 1469-yil Portug'aliyaning Sinish shahrida tug'ilgan. Portug'aliya qirol Hindistonga boriladigan dengiz yo'lini topish uchun Vasko da Gama boshchiligida (1497-1499 yillar) ekspeditsiya jo'natadi. Ekspeditsiyaga juda puxta tayyorgarlik ko'rilgandi. Vasko da Gama eng yaxshi kemalar, asboblari va kartalar bilan ta'minlanib ekspeditsiya tarkibidagi dengizchilar ham tajribali bo'lgan.

Vasko da Gamaning birinchi ekspeditsiyasi 1497-yil 8-iyul kunida sayyoh boshchiligida uchta kemada ( "San Gabriel", "San-Rafael", "Berriu") Lissabon

shahridan chiqib ketadi. Sayyohlar to'rt yarim oy suzib Sent- Helina bandorgohida to'xtaydilar.

Sayohatchilar Yaxshi Umid burnini aylanib o'tib baland qirg'oq bo'yiga keladi va u yerni Natal ("Rodjestvo") deb nom beradi. U yerdan so'ng Afrikaning sharqiy sohiliga chiqadilar. Shundan keyin Hind okeani bo'ylab shimolga suzadilar. Yo'l-yo'lakay sayyohlar Zambezi va Limpato daryolari qirg'oqlarida to'xtab o'tadi, Mombasa va undan keyin 1498-yil Mozambikning (Somali) Malunzi bandargohiga qiladi. U yerda navigatsiya ilmini yaxshi biladigan lotsman Ahmad ibn Majidni olib, uning yordamida Hindistonning Kalikut bandargohiga may oyida 10 oylik sayohatdan so'ng yetib boradilar. Vasko da Gamani hind rojasi yaxshi qabul qildi. Portug'allar kemalariga qimmatbaho toshlar va ziravorlarni yuklab orqaga qaytdilar. Ikki yilga cho'zilgan safar paytida dengizchilarning uchdan ikki qismi halok bo'ldi. Keltirilgan ziravorardan ekspeditsiyani uyushtirishga sarflangan mablag'dan 60 marta ortiq foyda olindi. Shunday qilib Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikaning janubiy sharqiy sohilini (Malindugacha) kashf qildi va hind okeanini kesib o'tdi. Ekspeditsiyaning 168 kishilik qatnashchisidan faqatgina 55 tasi 1499- yil yanvar oyida Lissabonga qaytib keldi.

Vasko da Gama 1502-yil Hindistonga 2-marta ekspeditsiya uyushtirdi va 20 ta harbiy kemada Hindistonning Malabarsk viloyatiga 400 kishilik arab qo'shini bilan kelib, u yerdan Kalikut shahriga hujum qilib shaharni bosib oladi hamda 1503-yil oktyabr oyida katta o'lja bilan o'z vataniga qaytdi. 1524-yil Lissabonga Hindistonning vitse-qirolini etib tayinlandi va uchinchi oxirgi ekspeditsiyasida, ya'ni 1524-yil 24-dekabrda Hindistonning Kochin shahrida vafot etdi. Uning hoki Portugaliyaga 1538-yil olib ketiladi. Vasko da Gamaning kashfiyoti Portug'aliyada g'oyat katta ta'sir qoldirgan. Bu kashfiyot munosabati bilan Portug'aliya qirolini Monoelga (1495-1521) "Bahtiyor" laqabi berildi va "Hindiston hokimi" degan unvon oldi.

Keyinchalik Portug'aliyaning eng atoqli shoirlaridan Luis Kamoyens Vasko da Gamaning sayohatiga atab "Luiziana" degan katta bir doston yozadi (1572 yil). Kamoens o'z dostonini bunday deb boshlaydi: "Men portug'aliya qirg'oqlaridan chiqib, noma'lum dengizlar orqali yerning narigi tomoniga ketgan mashhur qahramonlar haqida... mislsiz botirlik ko'rsatgan, dong'i ko'klarga yetuvchi yangi sulolaga negiz solgan yengilmas jangchilar haqida kuylamoqchiman".

Vasko da Gama sayohati natijasida Amerika qit'asi janubiy qit'a bilan qo'shilmaganligini isbotladi.

## 2. XRISTOFOR KOLUMBNING TADQIQ QILGAN HUDUDLAR

Xristofor Kolomb haqida bizning davrimizgacha turli manbalar yetib kelgan. Unga bag'ishlangan aksar kitoblar Kolombdan keyingi asrlarda yashagan mualliflar tomonidan yozilgan. Ular Kolombga o'z davri muhiti subyektiv munosabatiga ko'ra yondashganlar. Kolombning haqiqiy ismi –sharifi Xristoforo Kolumbo bo'lib “Kolombus” uning familiyasini lotincha shaklidir. Ingliz geografi Richard Haklut o'zining 1598-yil yozilgan “Buyuk Dengizchi” asarida “Kolombus ” degan nomni o'rat asr inglizxonlari asarida mashhur qilib yubordi. Xristofor Kolombning o'zi hujjatlarda XRO FERENS – hoch ko'tarib yuruvchi, hoch taquvchi deb imzo qo'ygan. Bu yunoncha- lotincha so'zlar aralashmasidan tashkil topgan imzo Kolombni okean ortidagi “yovvoyi” hisoblagan xalqlarga xristian dinini olib borgan shaxs sifatida baholaydi. Xristofor so'zi yunoncha “hochparast” degan ma'noni bildiradi. Ispaniyada Xristofor Kolombni “Kristobal Kolumbo” deb atashgan. Xristofor Kolomb 1451-yilning kuzida Italiyaning dengiz bo'yidagi shahri Genuyada yoki uning okrugida uncha boy bo'lmagan movut to'quvchi oilasida tug'ilgan.

Kolombning hayoti huddi afsonadagidek ko'pchilik behuda narsalarni orzu qiluvchi hayolparast deb hisoblangan qashshoq, hech kim e'tibor bermagan bir ajnabiy jahonga dong taratgan dengiz sayyohi va Ispaniyaning ulug' admirali bo'lib tanildi. Hatto Ispaniyaning dengiz orti mustamlakalarining vitse-qiroli martabasiga erishdi, keyin esa barcha mol –mulki va mansabidan ayrilib, mushkullikda hammaning e'tiboridan chetda vafot etdi.

Kolombga birinchi ekspeditsiya uchun ikkita kema berildi. Kemalar ekipaji Palos shahri va bir qator boshqa port shaxarlar aholisi ichidan tanlab tuzildi. Kolomb uchinchi kemani ham hozirlab qo'ydi. Unga mablag'larni yig'ishda Martin Pinsonga uning aka —ukalari

yordamlashdilar. Flotiliya jamoasi 90 kishidan iborat bo'ldi. Kolumb admiral bayrog'ini eng katta kema hisoblangan "Santa — Mariya" kemasida ko'tardi. Biroq u "Santa —Mariya"ni "kashfiyotlar uchun yaroqsiz yomon kema" deb baholagan edi. "Pinta" deb atalgan ikkinchi kemaga Pinsonlarning kattasi Martin Alonso kapitan etib tayinlandi. "Ninya" (bolakay) deb nomlangan uchinchi eng kichik kemaga kichik Pinson Visente Yanes kapitan bo'ldi. Ushbu kemalarning o'lchamlari haqidagi hujjatlar saqlanib qolmagan, tarixchilarning fikri esa bir — biridan keskin farq qiladi. Masalan, ingliz tarixchisi S.E.Morison "Santa — Mariya" kemasining sig'imini 100 tonna, "Pinta" kemasining sig'imini 60 tonnaga yaqin, "Ninya" kemasining sig'imini esa 50 tonnaga deb hisoblagan. AQSHlik "Gloriya Deak" esa "Ninya" va "Pinta" kemalarining sig'imini esa 60 tonna, "Santa —Mariya" kemasining sig'imini esa 90 tonna deb ma'lumot beradi. Uning yozilishicha "Ninya" kemasining rasmiy nomi "Santa —Klara" bo'lgan. X. Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi qanday maqsadlarni ko'zlaganligi to'g'risida ko'plab adabiyotlar bor. Bir guruh skeptik —tarixchilar Kolumb o'z oldiga 1492-yili Osiyo sohillariga borishni maqsad qilib qo'ymagan deb hisoblaydilar. "Katolik qirollar"dan bizgacha yetib kelgan Kolumb bilan kelishgan holda tasdiqlangan 2 asosiy hujjat — shartnoma va "unvon berilishi to'g'risidagi guvohnoma"da Osiyo ham, uning biron —bir qismi ham tilga olinmagan. Ushbu hujjatlarda geografik nomlar umuman yo'q. Ekspeditsiya maqsadlari esa jo'rttaga noaniq jumlalar bilan bayon qilingan edi. Buning sababi shundaki 1479-yili Kastiliya tomonidan tasdiqlangan, papa tortiqlari ko'rsatilgan Kanar orollaridan tortib to "hindlargacha" bo'lgan yangi hududlarni ochish huquqi Portug'aliyaga berilgan edi. Shuning uchun hujjatlarda "Hindiston" nomini tilga olish mumkin emas edi. Shu bois Kolumb Kanar orollaridan so'ng janubga emas, Yerro orolidan garbga qarab yo'l oldi. Biroq eslatib o'tilgan qit'a faqat Osiyo bo'lishi mumkin edi. Qadimgi va o'rta

asrlar tassavvurlariga ko'ra Yevropadan g'arb tomonda, g'arbiy yarim sharda boshqa qit'a bo'lishi mumkin emas edi. Bundan tashqari shartnomada qirol va Kolumb okean ortida topishlari ehtimol tutilgan tovarlar ro'yxati ham keltirilgai edi. "Javohir yoki qimmatbaho toshlar, oltin yoki kumush, ziravorlar..". Bu maxsulotlarning barchasi o'rta asrlarning geografik an'analariga ko'ra "Hindistonlar"da bo'ladi deb ko'rsatilardi. Afsonaviy orollarni kashf qilish asosiy vazifa bo'lganligi ehtimoldan yiroq. Braziliya orolini qimmatli braziliya daraxti bilan bog'lar edilar, holbuki bu haqda xujjatlarda hech narsa deyilmagan. Antiliya orolini u yerga ko'chib ketgan yepiskoplar asos solgan "Etti shahar" to'g'risidagi afsona bilan bog'lardilar. Agar Antiliya mavjud bo'lsa orolni xristian davlatlari boshqarardi qirollar yuridik jihatdan biron —bir kishiga Antiliyani Kastiliya uchun xarid qilish Kolumb merosxo'rlari uchun umrbod boshqaruvga berish huquqini bera olmasdilar. Katolik cherkovi an'analariga ko'ra xristian bo'lmagan davlatlarnigina in'om qilish mumkin edi. Kemalar ekipajlari xristian bo'lmagan (ehtimol musulmon bo'lgan) mamlakatlar bilan savdo —sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadidagina tuzilganligi shubhasizdir. Flot biron — bir kata mamlakatni bosib olish uchun tuzilmagan edi. Biroq ayrim orollarni "xarid qilish" ehtimoli borligi ham ta'kidlangandi. Kolumb flotiliyasi yirik istemolchilik operatsiyalari olib borish uchun mo'ljallanmagan edi. Qirollarning zaifligi, ekipaj a'zolarining ozligi, professional xarbiy kadrlarning yo'qligi shundan guvohlik berib turibdi. Kolumb keyinchalik qayta — qayta ta'kidlashiga qaramasdan ekspeditsiya "muqaddas" e'tiqodni (ya'ni katolik ta'limotini) targ'ib qilishni maqsad qilib olmagan edi. Aksincha kemalarda birorta ham rohib yoki ruxoniy yo'q edi. Kemada arab tilini oz — moz biladigan cho'qintirilgan yahudiy bor edi. Lekin musulmonlarning e'tiqod tili bo'lgan arab tili Braziliya, Antiliya kabi orollarda kerakmas edi, bu til musulmon mamlakatlari bilan savdo — sotiq qiluvchi Hindistonlarda qo'l kelishi mumkin edi. Qirol va qirolicha "Hindistonlar" bilan savdo

aloqalarini yo‘lga qo‘yishga intilardilar. Aynan shu narsa birinchi ekspeditsiyaning asosiy maqsadi edi. Kolumb Ispaniyaga qaytib kelgach "Hindistonlar"ni kashf qilganligini va u yerlardan hind (indios) larni olib kelganligini ma’lum qilganida u o‘zi yuborilgan va borib yetishni hojlagan joyda bo‘lganligiga va’dasining ustidan chiqqanligiga ishongan edi. Birinchi ekspeditsiyaning tashabbuskorlari va ishtirokchilari ham shunday deb o‘ylagan edilar. Navbatdagi kattaroq ekspeditsiyaning zudlik bilan tashkil qilinishi shu bilan izohlanadi. Ispaniyada bunga qariyb hamma ishongan edi, ishonmaydiganlar keyinroq paydo bo‘lishdi. 1492- yil 3-avgust kuni Kolumb kemalarni Palos gavanidan olib chiqdi. Kanar orollari yaqinida "Pinta" kemasi teshilib qolganligi ma’lum bo‘ldi. Uni ta’mirlash ishlari tufayli Kolumb floti 1492 -yil senyabrdagina Gomer orolini tark etdi. Dastlabki 3 kun shamol deyarli esmadi. So‘ngra yo‘l — yo‘lakay esgan shamol kemalarni g‘arbga shu qadar tez yeldirib ketdiki dengizchilar Yerro orolini ko‘zdan yo‘qotdilar. Vatandan uzoqlashgani sari dengizchilar havotirlari kuchayishini tushungan Kolumb kema jurnalida bosib o‘tilgan masofani kamaytirib ko‘rsatdi, dengizchilarga ham shu ma’lumotlarni aytib turdi, o‘zi esa to‘g‘ri ma’lumotlarni kundalik daftariga yozib bordi. 10 sentabr kuniyoq kundalikda bir sutkada 60 lig (360 kilometrga yaqin) masofani bosib o‘tilganligi, jurnalda esa "odamlarni qo‘rqitib yubormaslik uchun" 48 lig ko‘rsatilganligi yozilgan. Kundalikning keyingi sahifalari ham shunday yozuvlar bilan to‘la. 16 sentabr kuni "suv yuzasida ko‘plab yashil o‘tlar kuga tashlandi. Ularning ko‘rinishidan hozirgina yerdan yulib olingan deb o‘ylash mumkin". Flotiliya bu g‘alati suv xavzasi ustidan g‘arbga qarab 3 hafta suzdi. "Ayrim joylarda o‘tlar shunchalik ko‘p ediki, go‘yo dengizning hamma yog‘ini shu o‘tlar egallab olgandek tuyulardi". Chuqurlikni o‘lchash uchun lotni bir necha bor suvga tashlab ko‘rishdi, lekin lot suv tubiga yetib bormadi. Dastlabki kunlarda yo‘l —yo‘lakay esgan shamol sharofati bilan kemalar suv o‘tlari

ustidan yengil sirpanib suzishdi, ammo shamol tingach kemalar deyarli olg'a siljishmas edi. Shu tariqa Sargasso (yo'sin) dengizi kashf qilindi. Oktabr oyining boshlarida dengizchilar va zobitlar yo'nalishni o'zgartirishni talab qila boshladilar. Bungacha Kolumb g'arbga qarab qat'iyat bilan suzib borardi. Nihoyat u 7-oktabr kuni yon bosdi, chamasi Kolumb isyondan cho'chidi va janubi — g'arbga qarab kemalarni burdi. Oradan 3 kun o'tdi, uzoq vaqt suzganlaridan shikoyat qilgan odamlar endi bundan buyon toqat qila olmasliklari ma'lum Po'ldi. Admiral dengizchilariga manzil yaqin qolganligini, vatandan juda uzoqda ekanliklarini eslatib tinchlantirdi. Ayrim dengizchilarni u ko'ndirdi, boshqalariga mukofotlar va'da qildi, 11 oktabr kuni hamma narsa yerning yaqinligidan guvoxlik berardi, qushlarning sayroqi ovozlari eshitalardi. Dengizchilarni kuchli hayajon qamrab oldi, ular deyarli mijja qoqmadilar. 1492 yil 12 oktabr kuni tungi soat 2 larda "Pinta" kemasining matrosi Rodrigo Triana oy yog'dusida yerni ko'rdi va "Er" deb qichqirdi. (Aytishlaricha Kolumb kim birinchi bo'lib yerni ko'rsa unga 10 ming maravedi (hozirgi kunda 1400 AQSh dollariga teng) beraman deb va'da qilgan, ammo keyinchalik va'dasini bajarmagan. Aslida nima bo'lganligi nooaniq. "Bu orol juda katta va tekis bo'lib bu yerda yashil daraxtlar va suv ko'p, orol o'rtasida juda katta ko'l joylashgan. Xech qanday tog'lar yo'q". Subtropik zonadagi Gomer orolidan bu orolchaga Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan bu birinchi suzish 33 kun davom etdi. Kemalardan qayiqlar tushirildi. Kolumb, aka — uka Pinsonlar notarius va qirol nazoratchisi bilan sohilga admiral va vitse-qirol sifatida tushdi, Kastiliya bayrog'ini orolga o'rnatdi, orolga rasman egalik qilishga kirishdi va bu to'g'rida notarial hujjat tuzdi. Orolida ispanlar libossiz odamlarni ko'rishdi. Kolumb mustamlakachilar tomonidan bu orolda 20 — 30 yildan so'ng butunlay qirib yuborilgan aravaklar bilan bo'lgan bu birinchi uchrashuvni shunday tasvirlaydi. "Ular bizning qayiqlarimizgacha suzib kelishdi, bizga to'tilar, kalavalangan paxta

tolasi, paykonlar va boshqa ko'p narsalarni keltirishib, almashtirishdi... Biroq bu odamlar ko'zimga kambag'al ko'rinishdi. Ular onadan tug'ilgandek kiyimsiz yurishadi... Men ko'rgan barcha odamlar hali navqiron bo'lib yaxshi gavda tuzilishiga ega, tanasi va yuzlari juda chiroyli, sochlari dag'al ot yollariga o'xshaydi, kalta... Terisi Kanar orollari aholisining terisiga o'xshaydi, qora ham emas, oq ham emas. Ulardan ayrimlari yuzlarini bo'yaydi, boshqalari butun tanasiga rasm chizib olgan, ba'zilari faqat ko'zlari va burniga rasm chizgan. Ular (temir) qirol nimaligini bilishmaydi: men ularga qilichni ko'rsatganimda bu odamlar uning tig'idan ushlab, bilmaganlaridan barmoqlarini kesib olishdi. Ularda hech qanaqa temir yo'q". Orolida Kolumbga aholi alohida qadrlaydigan quruq" barglar"ni hadya qilishdi, bu tamaki barglariga birinchi ishora edi. Hindular o'z orolini Guanaxani deb atashardi. Admiral orolga xristiancha nom berdi San —Salvador (Muqaddas najotkor). Bu Bagam orollaridan biri bo'lib 24° shimoliy kenglik va 74° 30' g'arbiy uzoqlikdagi orol edi. Hozirgi paytda Uotling oroli deb ataladi. Kolumb ayrim hindularning burnidagi oltin parchalariga e'tibor qaratdi. Oltin go'yo qayerdandir janub tomondan olib kelinishi ma'lum bo'ldi. Shu paytdan boshlab Kolumb o'z kundaligida oltinni "qazib olinadigan joyini topishni" takrorlashdan tolmaydi. Ispanlar qayiqlarda 2 kun ichida Guanaxani orolining g'arbiy va shimoliy sohillarini o'rganib chiqishib, bir necha qishloqni topishadi. Uzoqdan boshqa orollar ham ko'ringanligi sababli Kolumb arxipelagini kashf etganligiga amin bo'ladi. Mahalliy aholi ispanlarning kemalariga turli o'lchamdagi qayiqlarida kelib ketishardi. Bu qayiqlar bittadan tortib 40 — 45 tagacha odam ko'tarardi. Janubiy yerlarga "Oltin qazib olinadigan joylar"ga yo'l topish uchun Kolumb 6 hinduni ushlab buyuradi. Ularning ko'rsatmalaridan foydalanib Kolumb janub tomonga suza boshlaydi. Guanaxanidan janubi — g'arbda joylashgan orollarni Kolumb Santa Mariya de Konsepson (Ramki) va Fernandina (Long — Aylend) deb atadi. Bu yerlik hindular Kolumbga

Guanaxani hindulariga nisbatan "mulohazali, uy —ro'zg'orga yaxshi qaraydigan, mirishkor, xushmuomalaliroq ko'rindi. Men ularda hatto plashga o'xshash paxta tolasidan tikilgan kiyim — kechak ko'rdim va ular bezanishni yoqtirishadi". Orolliklarning uylariga kirgan dengizchilar ustunlarga bog'lab osib qo'yilgan to'qima o'rin — joylarni qo'rishgan. "Hindular yotib uxlaydigan o'rin — joy va to'shamalar to'rga o'xshaydi va paxta kalavasidan to'qilgan" (gamaklar). Ammo ispanlar orolda oltin konidan nom —nishon topolmaydilar. Flotiliya 2 hafta mobaynida Bagama orollari orasida suzib yurdi. Kolumb g'alati gul va mevali ko'plab o'simliklarni ko'rdi, biroq ular orasida unga tanish bo'lgan o'simliklar yo'q edi. 15—16 oktabrdagi yozuvlarida Kolumb arxipelag tabiatini zavq - shavq bilan ta'riflaydi. Bagama orollarining ispanlar borib yetgan so'nggisi Izabella (Pruked — Daylend) deb ataladi. Dengizchilar hindulardan janubiy orol — Kuba to'g'risida eshitgan edilar. Hindularning so'zlariga qaraganda Kuba juda katta orol bo'lib, katta savdo-sotiq ishlari olib borilardi. 28 oktabr kuni Kolumb "juda go'zal daryoning quyilish joyiga keldi" (Kubaning shimoli — sharqidagi Bariey buxtasi, 76° g'arbiy uzunlik). Mahalliy aholining qo'l hatti - harakatlaridan Kolumb bu yerni kemada 20 kunda ham aylanib chiqa olmasligini tushundi. Shunda Kolumb Sharqiy Osiyoning yarim orollaridan biriga yetib keldim deb xulosa chiqardi. Lekin bu yerda boy shaharlar ham, shohlar ham, oltin ham, ziravorlar ham yo'q. Ertasiga ispanlar Kuba oroli yoqalab shimoli — g'arb tomonga 60 kilometrga suzib borishdi. Ular xitoylar bilan uchrashishdan umid qilishardi. Biroq hech kim, hatto admiral ham Xitoygacha juda uzoq —to'g'ri yo'ldan borishsa 15 ming kilometrdan ham uzoqligini tasavvur qila olmas edi. Ahyon — ahyonda sohilda kichik qishloqlar uchrab qolardi. Admiral 2 kishini shohni izlab topish va munosabat o'rnatish uchun jo'natdi. Yuborilganlardan biri arab tilini bilar edi, ammo hech kim bu o'lkada arabchani tushunmas edi. Dengizdan biroz uzoqlashgan ispanlar ishlov

berilgan dalalar bilan o'ralgan, yuzlab odamlar yashaydigan qishloqlarni, shoh — shabba va qamishpoyalardan qurilgan uylarni topishdi. Faqat bir o'simlik — g'oz yevropaliklarga tanish bo'lib chiqdi. Uylarda paxta uyumlari bor edi, ayollar paxtadan dag'al matolar yoki kalavalardan to'r to'qishardi. Kelgindi (ispan)larni kutib olgan hindular "qo'llarida so'xta o'tin va chekiladigan o't bilan kelishdi". Yevropaliklar shu tariqa tamaki qanday chekilishini ko'rishdi, notanish o'simliklar mais (makkajo'xori), kartoshka va tamaki bo'lib chiqdi. Kemalarni yana ta'mirlash zarur edi, g'arbga suzishdan endi samara chiqmaydigan ko'rinadi. Kolumb Xitoyning eng qashshoq qismiga yetib keldim, ammo sharq tomonda badavlat Yaponiya bo'lishi kerak deb o'ylab ortga qarab suzdi. Ispanlar Bariey buxtasi yaqinidagi Xibara buxtasida langar tashlashdi va 12 kun turib qolishdi. Bu davr mobaynida admiral Babek oroli va u yerdagi "odamlar sohil bo'ylab oltin yig'ishlari" haqida ma'lumot oldi. 13 noyabr kuni u sharqqa qarab suzdi, 20 noyabr kuni "Pinta" kemasi ko'zdan yo'qoldi. Hiyonat deb shubha qilgan Kolumb Martin Pinson bu orolni shaxsan o'zi kashf qilmoqchi deb faraz qildi. Qolgan ikkita kema 2 hafta mobaynida sharqqa qarab suzdi va Kubaning sharqiy chekkasiga yetib bordi. Bu Maysi burni edi.

1493- yil 25- sentabr kuni Kolumbning ikkinchi ekspeditsiyasi Kadis portidan yo'lga chiqqan. Kanar orollarida shakarqamish va portug'allardan o'rnak olgan holda katta itlarni kemalarga yuklashdi. Bu itlar odamlarni ovlash uchun mahsus o'rgatilgan edi. Kanar orollaridan Kolumb janubi — g'arbga qarab yo'l oldi. Espanola aholisi janubi — g'arbda "odamxo'r kariblar yurti" va oltin ko'p bo'lgan "ersiz ayollar orollari" borligini aytishgan edi. Kemalar yo'nalish birinchi suzish paytidagidan taxminan 10 gradus janubroqdan o'tardi. Yo'nalish (favqulodda omadli olingan edi: shimoli — sharqiy passat shamoli yordamida Kolumb okeanni 20 kunda bosib o'tdi. Bu yo'ldan keyinchalik Yevropadan "G'arbiy

Hindiston boruvchi kemalar foydalanishdi. 3 noyabr kuni tog'li, o'rmonlarga-boy orol ko'rindi, Bu orol yakshanba kuni (ispan tilida "dominika") kashf etildi, shu bois Kolumb uni Dominika deb atadi. Kemalar kirishi uchun qulay gavan bo'lmagani uchun admiral shimol tomonga suzdi. U yerda Kolumb kichik quyi orolni ko'rdi va uni Mari — Galant deb atab langar tashlashni buyurdi. U yerdan boshqa orollar ham ko'rinib turardi. 4- noyabr kuni Kolumb Gvadalupe deb nomlangan eng yirik orolga yo'l oldi. Bu yerda ispanlar 8 kun bo'lishdi, sohilni kezishdi, qishloqlarga borib uylarga kirishdi. "Uylarda biz ko'plab inson suyaklari va bosh chanoqlariga duch keldik. Ular turli narsalar solish uchun ishlatiladigan idishlardek osib qo'yilgan edi. Erkaklar oz edi, bizga buni ayollar izohlab berishdi. Ularning aytishicha erkaklar o'nlab kanoeda orollarni talagani ketishgan. Bu odamlar bizga boshqa orollar odamlariga nisbatan ilg'orroq ko'rinishdi garchi ularning uylari poholdan qurilgan bo'lsada puxta jihozlari ko'p Ularda paxta mo'l paxta tolasidan to'qilgan yopinchiqlari ham oz emas. Bu matolar bizning Kastiliya matolaridan qolishmaydi» (Ikkinchi ekspeditsiya vrachi Diego Alvares Chanki maktubidan), Asiralarning so'zlariga qaraganda yangi kashf etilgan uchala orolda kariblar yashashardi. Ular osoyishta hayot kechiruvchi, qariyb qurollanmagan aravaklar ustiga yurish qilishar, daraxt tanasidan yo'nilgan katta qayiqalarda uzoqlarga suzib borishardi. Ular o'q —yoy bilan qurollangan bo'lib o'qlarining uchiga toshbaqa kosasi siniqlaridan yoki "o'tkir arrani eslatuvchi baliq suyaklaridan paykon o'rnatilgan edi". Yurish qilib kelgan kariblar, — dob yozadi D.Chanki — asirga olingan barcha ayollarni olib ketishar, ular bilan yashashar yoki xizmatlarini qildirishardi. Ayollar shunchalar ko'pki biz 50 ta uyda faqat hindu ayollarni ko'rdik. Ularning aytishicha kariblar bu ayollardan tug'ilgan bolalarni iste'mol qilib, faqat karib ayollardan tug'ilgan chaqaloqlarni tarbiyalab voyaga yetkazishar ekan. Asir erkaklarni kariblar o'z manzilgohlariga olib ketib yeyishar,

o'ldirilganlar ham shu kuyga solinar ekan. "Karib" so'zi ispanlar tomonidan buzib talaffuz qilingan va "kannibal" tarzida ishlatilgan. Tez orada "kannibal" so'zi "odamxo'r" ma'nosini anglata boshladi. Kariblarni odamxo'rlikda ayblash Kolumb kundalıkları va Chanki maktublaridan ayon bo'lishicha Espanola aholisi va Kichik Antil orollaridan olib kelingan asiralarning so'zlarit asoslangan va go'yoki kariblarning uy—joylaridan topilgan inson bosh chanog'i va suyaklarning topilishi bilan isbotlangan edi. Lekin D.Chankining o'zi ham bu topilmalar kannibalizmning mavjudligini isbotlaydigan dalilligiga shubha bildirdi. Chunki sokin hayot kechiruvchi aravaklarning uylarida ham bosh chanoq suyaklari topilgan. "Biz Espanolada juda chiroyli va puxta to'qilgan savatchada odamning yaxshi saqlangan kallasini ko'rdik. Biz bu ota, ona yoki xotirasi e'zozlanadigan birorta zotning kallasi bo'lsa kerak deb o'yladik. Keyinchalik men shu singari kallalar ko'plab topilganligini eshitdim va bizning farazimiz to'g'ri ekan deb hisoblayman». Kariblarning odamxo'rliklari to'g'risidagi jabrdiyda aravaklarning ko'rsatmalariga kelsak, xatto XIX asr horijiy tarixchi va etnograflari ham bu guvohliklarga to'la ishonib bo'lmasligini yozishgan. Ularning ta'kidlashlaricha mustamlakachilar Kichik Antil orollari aholisi ommaviy qirish yoki qullarga aylantirish kabi ishlarini haspo'shlash uchun kariblarning "qonxo'rliqi"ni o'z xabar ma'lumotlarida bo'rttirib ko'rsatishgan. Sobiq Sho'ro etnograflari o'z vaqtida kariblarda matriarxatdan patriarxatga o'tish davrida odamho'rlik harbiy udum sifatida saqlanib qolgan bo'lishi mumkin degan fikrni olg'a surishgan. Kariblar dushmanning jasurligi, kuchi, tezkorligi va boshqa harbiy fazilatları kim uning yuragini yoki qo'l va oyoq mushaklarını iste'mol qilsa o'shanga o'tadi deb ishonishar edi. Gvadelupadan Kolumb shimoli —g'arbga tomon suzdi va yangi orollarni birma —bir kashf qildi. 11-noyabr kuni Montserrat, Antigua (ispanlar bu

orollarga tushishmagan) va kemalar langar tashlagan Nevis 12 noyabr kuni Sant —Kitte, Sant — Estatus va Saba 13 noyabr kuni g'arbda ishlov berilgan dalalari bo'lgan Santa —Krus orollari kashf qilindi. Ertasiga Kolumb Espanola va boshqa orollarga bora oladigan yo'lboshlovchi topish niyatida sohil bo'yida joylashgan qishloqqa qurollangan erkaklarni qayiqda yuboradi. Ular bir nechta ayolni va kariblar asiri bo'lgan o'g'il bolalarni olib kemaga qaytayotganlarida kariblarning qayig'iga duch kelishadi. Uylariga qaytayotgan kariblar dengizda katta kemalarni ko'rib hayratda qolishdi. Bu paytda yevropaliklar tushgan qayiq kariblarning sohilga boradigan yo'lini to'sib qo'ydi. "Qochishga yo'l topolmagan kariblar jasurlik bilan o'q yoylarni hozirlashdi ular jami 6 kishi edi. 4 erkak va 2 ayol bizning 25 jangchimizga qarshi chiqdi. Ular 2 dengizchimizni yarador qilishdi. Agar bizning qayig'imiz ularning qayig'iga yaqin borib ag'darib yubormaganda kariblar kamon o'qlari bilan odamlarimizning ko'pchiligini nobud qilgan bo'lishardi... Qayig'i ag'darilgandan so'ng ular suzib sayozlikka borishdi va... kamonlaridan o'q uzishda davom etishdi. Ulardan birini nayza bilan og'ir yarador qilib, asirga olishga muvaffaq bo'ldik" (D.Chanki). Bu kariblarni kurashish nimaligini va o'z ozodligini bosqinchilardan himoya qilishni biladigan xalq-ekanini ko'rsatib turibdi. 15 sentabr kuni ertalab shimolda "qirqdan, balki undan ham ko'p orolchalardan iborat tog'li va aksariyat qismi hosilsiz bo'lgan yer" ko'rindi. Kolumb bu arxipelagni "O'n bir ming bokira qiz» deb nomladi. Bu orollar dengizda «o'n bir ming qiz" udumini eslatuvchi uzun turnaqator safni eslatganligi uchun shunday atalgan. Afsonaga ko'ra Kornuolldan Rimga haj safariga borgan qizlar ona shaharlariga qaytishayotganida Kyolnni qamal qilgan xunlar tomonidan qirib tashlangan. Shundan beri bu orollar Virginiya orollari deb ataladi. 3 kun ichida flotiliyaning kichik kemalari arxipelagni shimoldan, katta kemalari esa janubdan aylanib o'tishdi. Kemalar Vekes

oroli yaqinida uchrashishdi. Bu oroldan g'arb tomonda katta yer ko'rindi. Gvadelupada asirga olingan hindular bu ular tug'ilib o'sgan Bariken oroli ekanini, kariblar bu yerga tez — tez hujum qilib turishlarini aytishdi.

19 noyabr kuni flotiliya tog'li janubiy sohil yoqalab kun bo'yi suzib yurdi. "Bu juda chiroyli va aftidan juda serhosil zaminli orol edi. Ispanlar shimoliy sohilda  $18^{\circ}$ - $17^{\circ}$  shimoliy kenglikda to'xtab sohilga chiqishdi. Ularni ko'rgan ko'pgina-mahalliy aholi qochib ketishdi. Kolumb orolni San — Xuan — Bautista (XVI asrdan Puerto — Riko — badavlat gavan) deb atalgan Navidad fortiga yetmasdan dengizchilar Espanola sohiliga langar tashlab chuchuk suv olish uchun tushishdi va bo'yni xmda oyoqlariga arqon bog'langan iriy boshlagan to'rtta murdani topishdi. Murdalardan biri soqolli, demak yevropalik edi. Flotiliya fortga 27- noyabr tunda yetib keldi va zambarakdan 2 marta o'q uzib signal berdi. Fortdan javob bo'lmadi. Tongda Kolumbning o'zi sohilga tushdi, biroq fort ham, odamlar ham yo'q edi. Yong'in izlari va murdalargina bor edi. Ispanlarning halokatga uchrashi tafsilotlarini aniqlab bo'lmadi, ammo ular talonchilik va zo'ravonlikda aybdor ekanliklari shak —shubxasiz edi. Hindularning aytishicha har bir mustamlakachi bir necha xotinga uylanib olgan, ular o'rtasida janjallar boshlangan, mustamlakachilarning katta qismi orol ichkarisiga ketgan va o'sha yerda mahalliy qabila boshlig'i — kasik tomonidan qirib tashlangan. Keyin Kasik Navidadni buzib tashlab, o't qo'yib yuborgan, Qayiqlarda qochib jon saqlamoqchi bo'lgan yevropaliklar cho'kib ketishgan. Kolumb yondirilgan fortning sharqida shahar barpo qilib uni 1494 yil yanvarida Izabella deb atadi. U yerda Yangi dushman — sariq bezgak paydo bo'ldi. "Odamlarning aksariyati shu kasalga muhtalo bo'ldi". Orolning ichkarisiga admiral Alonso Oxeda boshliq kichik bir otryadni yubordi. Bir necha kundan so'ng u orol ichkarisida tinch hindu aholisi zich yashashini va boy sochma oltin konlari borligi haqida xabarlar hamda Sibao (Kordilera — Sentral) tog'li yaqinidagi Yake —del

—Norte daryosi vodiysida topilgan tarkibida ko‘p miqdorda oltin bo‘lgan daryo qumidan namuna olib keldi. Oltin qidirib 12 — 29 mart kunlari Kolumb Gaiti oroli ichkarisiga kirib bordi, Kordilera — Sentral tog‘ tizmasiki oshib o‘gdi Antil orollarinis yuqori nuqtasigacha 3175 metrgacha bordi. U Izabella shahrida Kolumbni noxush xabar kutardi. Oziq — ovqat zahiralarning katta qismi nam tropik issiq havo tufayli aynib qolgan edi.

Kolumb hindularga juda og‘ir to‘lov belgiladi —oltin yoki paxta. Hindular qishloqlarini tark etishdi, orol ichkarisiga, tog‘larga ketishdi, bosqinchilar olib kelgan kasalliklardan ulardan o‘n minglab odam qirilib ketdi. Hech kim yashirina olmasdi — plantatsiyalar yoki oltin konlarida qul bo‘lib ishlashardi. Sariq bezgak tufayli mustamlakachilar Espanolaning shimoliy sohilini tark etib janubiy tomoniga — sog‘lom muhit mavjud yerga o‘tib ketishdi, shu yerda 1496- yil Bartolomeo Kolumb Santo —Domingo shahriga asos soldi. Santo—Domingo Espanolaning siyosiy va iqtisodiy markazi, yevropaliklarning Amerikadagi eng ko‘hna manzilgohi bo‘lib qoldi. Bu orada Kolumb Ispaniyaga biroz oltin, mis qimmatli yog‘och namunalari va bir necha yuz hiidu qullarni yubordi. Lekin qirolicha Izabella ruhoniylar va huquqshunoslar bilan kengash o‘tkazilgunga qadar qullarni sotishni to‘xtatib qo‘ydi. Espanoladan olingan daromad ekspeditsiya xarajatlari oldida arzimas ko‘rindi, shu bois qirollar Kolumb bilan tuzilgan shartnomani buzishdi. 1495-yili hazinaga topilgan oltinning uchdan ikki qismini berishga rozi bo‘lgan barcha kastiliyaliklarga yangi yerlarga ko‘chib borishga ruhsat beruvchi farmon chiqarildi. Hukumat esa ko‘chib boruvchilarni bir yillik oziq —ovqat bilan ta‘minlash majburiyatinigina o‘z zimmasiga oldi. Shu farmonning o‘zida har qanday tadbirkorga kemalarni g‘arbda yangi yerlar ochish va oltin qazib olish (Espanoladan tashqari) uchun hozirlashga ijozat berildi. Tashvishga tushgan Kolumb 1496 yil 11 iyun kuni Ispaniyaga o‘z huquqlarini himoya qilish uchun shaxsan qaytib keldi. U Kuba orolini Osiyo qit‘asi deb o‘ylagan edi.

Kolumb Osiyo qit'asiga yetib kelganligini tasdiqlovchi hujjat keltirdi. U Espanolaning markazida Ofir deb atalgan, Bibliyada tilga olingan shoh Sulaymon oltin qazib olgan ajoyib mamlakatni topganligini ta'kidlard. U Kolumb yana ajoyib nutqlari bilan qirollarni o'ziga rom qildi va g'arbdagi yerlarni kashf qilish huquqi unda va uning o'g'illaridan boshqa hech kimga berilmasligiga va'da oldi. Biroq ko'ngilli ko'chib ketuvchilar xazinaga qimmatga tushardi, shuning uchun Kolumb "yerdagi jannat"ga jinoyatchilarni ko'chirib borish taklifini kiritdi, zero bu arzon tushardi. Qirol farmoniga ko'ra Ispaniya sudlari jinoyatchilarni ularning jazo muddatini yarmini o'tati sharti bilan Espanolaga surgun qila boshladi. Ikkinchi ekspeditsiya mobaynida birinchi safar bo'lganidek Kolumb o'zi buyuk dengizchi va flot boshlig'i sifatida ko'rsatdi. Dengizda suzish tarixida birinchi bor turli xil kemalarning yirik birlashmasi Atlantika okeani talofatsiz suzib o'tdi va sayoz joylar hamda riflarga to'la Kichik Antil orollari labirintidan hech qanday harakatsiz o'tib ketdi.

Uchinchi ekspeditsiyani hozirlash uchun Kolumb juda kata qiyinchiliklar bilan mablag' topa oldi. Bu ekspeditsiya ikkinchi ekspeditsiya singari katta bo'lmadi — oltita uncha katta bo'lmagan kema, 300 ga yaqin kishidan iborat jamoa yo'lga hozirlandi. "G'arbiy Hindiston"ga "omadsiz" admiral bilan borishni hoxlovchilar ko'p bo'lmadi. Shunda Kolumb qirollardan turma darvozalarini ochishni va jinoyatchilar orasidan ko'ngillilani yollashga ijozat berishlarini so'radi. 1498-yil 30 may kuni flotiliya Gvadalkvivir daryosi etaklaridan yo'lga chiqdi. Nima sababdan o'zi kashf qilgan "Hindiston"da shu paytgacha tabiiy bolyiklarni uchratmaganligini tushunib yetmayotgan Kolumb olim — zargar bilan maslahatlashdi va uning ko'rsatmasiga ko'ra ekvatorga yaqin suzishga qaror qildi. U olim —zargar o'z kasbiga ko'ra qimmatbaho toshlar va oltin qaerlarda uchrashi mumkinligini biladi deb faraz qilgan edi. O'sha zamoshshrda qimmatbaho toshlar va oltin issiq iqlim sharoitida uchraydi

deb hisoblanar edi. Yerro oroli yaqinida admiral flotiliyani 2 yoʻnalishga boʻldi: uchta kemani u Espanolaga yubordi, qolgan uchta kemani Yashil Burun orollari tomon burdrt. U "ekvator chizigʻiga chiqib olish, keyin esa gʻarbga Espanola oroli shimol tomonda qolgunga qadar suzish"ni rejalashtirdi. 13- iyul kuni admiral aniqlashicha kemalar 5° shimoliy kenglikka (aslida 9° 30° shimoliy kenglik) yetib kelishdi. "Bu yerda shamol tindi va shundayin jazirama boshlandiki, — deb yozadi Kolumb qirollarga — menga kemalar ham, ulardagi odamlar ham yonib ketadiganday tuyuldi. Shamolsiz ob — havo bir haftadan ziyod davom etdi . 22-iyul kuni yoʻl — yoʻlakay hamroh shamol esa boshladi va admiral "hamma vaqt Serra —Leone yoʻnalishida gʻarbga qarab yer koʻrinmaguncha suzishga ahd qildi. 31- iyul kuni dengizchi Alonso Peres admiral kemasi machtasidan gʻarbda tepalikka oʻxshash yerni koʻrdi. Bu katta orol edi. Kolumb unga "Trinidad" ("Uchlik") deb nom berdi. Avgʻust oyida kemalar orolning janubiy sohili boʻylab suzib qumloq burunga (Ikakos, Trinidadning janubi — gʻarbiy chekkasi) chiqishdi. Gʻarbda Janubiy Amerika qitʻasining Orinoko daryosi deltasidagi qismi koʻrindi." Kolumb uni "Grasiya ("Farogʻat") zamini" deb nomladi. Bu "zamin"dan Trinidad oroli eni 2 ligi (17 kilometr ga yaqin) keladigan koʻrfaz bilan ajralib turardi, "Men burun yaqinida koʻrfazdan tashqarida langar tashladim va koʻrfazda suv sharqdan gʻarbga kdrab Gvadalkvivirda suv toshgan daytidagi singari kecha —kunduz tez oqadi". 2 avgust kuni sharqdan burunga 24 jangchi joylashgan qayiq Trinidadan keldi. "Jangchilar yosh, gavdalari yaxshi tuzilgan, tanalari men Hindistonda koʻrgan barcha odamlarning tanalaridan oqroq, xushsurat. Sochlari uzun, mayin, kastiliyacha qilib kechilgan, boshlariga esa yaxshi ishlov berilgan turfa rang paxta tolasidan tikilgan roʻmol bogʻlab olishgan. Ayrimlari esa bu roʻmollarni bellariga bogʻlashgan... Menda ularni kemalarga yaqinlashishga undovchi... hech narsa yoʻq edi. Shu sababli men tanburimni olib chiqishni va yosh dengizchilarga raqsga tushishni buyurdim.

Biroq musiqani eshitishlari hamda raqsga tushayotganlarni ko'rishlari bilanoq xindular eshkaklarni bir chetga qo'yib, qo'llariga kamon olib bizga o'q yomg'irini yog'dira boshlashdi (orol aholisi raqsni harbiy raqs deb tushundi) va men ularga arbaletlardan o'q uzishga buyruq berdim. Hindular qaytib ketishdi..." Yo'lakay hamroh shamol esgan paytda kemalar Boka —de — la — Serpe (Ilon og'zi) bo'g'ozidan o'tishdi. Bo'g'ozdan shimol tomonda suv tinch edi. Suvni tasodifan olib ko'rgan Kolumb uni chuchuk ekanligini bilib qoldi. U tog'li yarimorol Pariyaning sharqidagi baland toqqa (Patao — 1070 metr) yetguncha shimolga qarab suzdi. Pariya yarimoroli Pariya ko'rfazini Karib dengizidan ajratib turardi. "U yerda ko'rfaz juda torayadi, suv oqimi ham ikkiga bo'linadi va suv Qumloq burun sohillaridagi kabi kuch bilan xayqirib oqadi. Suv dengizdagi singari chuchuk edi", Bu shimolii ko'rfaz Bokas—del —Dragon (Ajdar og'zi) deb ataldi. Grasiya zaminining (Pariya yarimoroli) janubiy sohili yoqalab Kolumb g'arbga ketgani sari suv yanada chuchuklashib bordi. Sohillarda ispanlarga noma'lum bo'lgan, shoxlarida maymunlar sakrab yurgan ko'pgina mevali daraxtlar o'sib yotardi. Ispanlarni dengizdan "bevosita" o'sib chiqqan mangr o'simligi hayratga solar edi. Yarimorol kengayib, tog'lar shimol tomonda,-qolgan joyda kemalar langar tashlashdi. Orinoko daryosi deltasi va Pariya ko'rfazini shu tariqa kashf qilgan Kolumb keyingi voqealarni quyidagicha tasvirlaydi. "Mahalliy aholi kemalarga ko'p sonli kanoelarda yaqinlasha boshlashdi, ularning ko'pchiligi bo'ynilariga katta oltin parchalarini osib olishgan, ayrimlari esa qo'llariga marvarid bog'lab olishgandi15 avg'ust kuni u hindular marvarid chig'anoqlari ovlaydigan orollarga suzib keldi. Ispanlar har xil mayda — chuydalarga marvaridlarni almashtirib olishdi. Bu orollarning eng yirigi (1,2 ming km<sup>2</sup> ga yaqin) Margarita ("Marvarid") deb nomlandi. Bu yerdan Kolumb to'g'ri Espanolaga, shimolga yo'l oldi. O'z o'rnida betoblikdan zaiflashib yotgan Kolumb o'z kashfiyotlarining ahamiyati xdqida mulohaza yuritdi. Bir

necha hafta davomida qirollarga yuborish uchun tayyorlagan xatidan uning ajoyib xulosa va farazlarini hayolot bilan chalkashib ketganligi ko‘rinib turibdi. Pariya ko‘rfazida chuchuk suvning mo‘lliti faqat qit‘adagina bo‘ladigan qudratli daryo borligidan guvohlik berardi. "Ishonchim komiliki bu zamin juda katta va uning janubida hozirgacha hech qanday ma‘lumotlar bo‘lmagan ko‘plab boshqa yerlar bor". Bu qanday qit‘a edi? Kolumbning juda to‘g‘ri xulosasi diniy alahsirash bilan uyg‘unlashib ketgan u yerdagi jannatga yetib keldim deb ta‘kidlardi. Kolumb u kirib kelgan yer yarim shari dumaloq nokning yarmiga o‘xshashini, bu yerlar jahondagi eng baland va osmonga yaqin yerlar ekanligini aytdi. "U yerdan ehtimol suvlar oqib tushib, men turgan yerga qarab oqadi. Mabodo bu daryo yerdagi jannatdan oqib chiqmasa, unda men bu daryo hozirgacha hech kimga ma‘lum bo‘lmagan janubdagi kagga yerdan oqib keladi deb tasdiqlayman", ya‘ni uning aytishicha daryo ioma‘lum janubiy qit‘a bo‘ylab oqadi. Bu qit‘aning shimoliy sohilini u taxminan 400 kilometrgacha kashf qilgan edi. Karib dengizini birikchi bor kesib o‘tib admiral 1498-yil 20-avg‘ust kuni Espanolaga keldi. U bu yerda to‘la vayrongarchilikning ustidan chiqdi. Idalgolar Kolumb tayinlagan boshliqlarni tan olishdan bosh tortishdi. Ular Kolumbning ukasi Bartolomeoga qarshi qo‘llarida qurol bilan qo‘zg‘olon qilishdi, ermak uchun hindularni o‘q uzish nishoniga aylantirishdi, o‘zlarining. yangi Chruqarolari"ni plantatsiyalardagi ishlar bilan holdan toydirishayudi. o‘nlab qullarni baliq; ushlab va ovga chiqish, o‘zlarini gamaklarda ko‘tarib yurishlari uchun, cho‘rilarni esa "uy ishlarini qilish" uchun saqlashardi. Qo‘lga tushgan hindu ayollar bilan ular "surbetlarcha ko‘p nikohlilik"da yashashardi. Isyon Kolumb uchun haqoratomuz bo‘lgan bitim imzolanishi bilan tugadi. Har bir isyonchiga katta yer uchastkasi va ishlov berish uchun ma‘lum miqdorda hindular berildi. Shu tariqa Kolumb Ispaniya mustamlakachilik siyosatining boshlang‘ich davri uchun xarakterli bo‘lgan tizimi — repartimento (aynan taqsimlab berish, bo‘lib

olish)ning keng tarqalishini boshlab berdi. Bu hindularni qullikka aylantirish tizimi edi. Qochib ketganlik uchun xo‘jayinning hoxishiga ko‘ra o‘lim jazosi yoki qulga aylantirish kabi jazo berilardi. Qirol xazinasi yangi mustamlakalardan arzimas daromad olishda davom etardi. Bu paytda portugal Vasko Da Gama asl Hindistonga dengiz yo‘lini ochdi (1498-yil savdo — sotiqni yo‘lga qo‘ydi va 1499-yili vataniga ziravorlar bilan qaytib keldi. Kolumb kashf qilgan yerlarning boy Hindistonga hech qanday aloqasi yo‘qligi endi ochiq —oydin ayon bo‘lib qoldi. Uning o‘zi safsataboz va aldanchi bo‘lib ko‘rina boshladi. Kolumbning ustidan yangi chaqimchilik xatlari, qirol daromadlarini yashirishdagi ayblovlar yog‘ila boshladi. Espanoladan Ispaniyaga isyonlar, dvoryanlarning qatl etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kelardi. Kolumb Hindistonidan o‘z vataniga hech narsasiz qaytib kelgan idaolgolar aldovlar va baxtsizliklar mamlakatini, Kastiliya dvoryanlari qabristonini ochgan admiralni ayblashardi. Ular qirolicha ekipajlari bo‘lgan admiral o‘g‘illarini xushtak chalib, so‘kinib ta‘qib qilishardi. 1499-yili qirollar Kolumbning yangi yerlar ochishga bo‘lgan monopol huquqini bekor qilishdi. Bundan Kolumb hamrohlaridan bir qismi zudlik bilan foydalanib qolishdi va uning raqibiga aylanishdi. 1500-yili esa Espanolaga cheklanmagan vakolatlar bilan Fransisko Bovadilya yuborildi. U og‘zaki yo‘riqnoma va xatlar olib keldi. Admiralga yuborilgan xatlarning birida shunday yozilgandi: "Biz Bovadilyaga o‘z nomimizdan sizga ayrim narsalarni aytishii taklif qildik. Unga ishonishni va bo‘ysunishni taklif qilamiz". Admiral Bovadilvyaga barcha qal‘alarni, kemalarni, otlarni, qurollarni va zahiralarni topshirish kerak edi. U butun hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Kolumbning uyiga joylashdi, uning narsalari, hujjatlari, pullarini egallab oldi, barcha mustamlakachilarga to‘lanmay qolgan maoshlarni to‘ladi. Bovadilya har bir ispanga topilgan oltinning yettidan bir qismini (avval uchdan bir qismi edi) xazinaga topshirish sharti bilan 20 yil mobaynida oltin qidirishga ijozat berganidan

soʻng barchaning sevimli kishisiga aylandi. U admiralni, uning ukalari Bartolomeo va Diegoni hibsga olib kishanlab qoʻydi. 2 oy davom etgan tergov — surishtiruv ishlaridan soʻng Boadilya X.Kolumbni "shafqatsiz qalbli va mamlakatni boshqarishga layoqatsiz" odam degan xulosaga keldi va aka — uka Kolumblarni kishanband holda Ispaniyaga joʻnatib yubordi. Kolumb barcha unvonlaridan mahrum boʻldi. 1500-yil oktabrida Kolumblar tushgan kema Kadis gavaniga kirib ketdi. Lekin manfaatdor nufuzli moliyachilar taxqirlangan admiral foydasiga "jamoatchilik fikrini safarbar qilish"ga muvaffaq boʻlishdi.

Bu orollar Yamaykaning shimoli — gʻarbida edi. Soʻngra qarshi esgan shamollar va oqimlar bilan shiddatli kurashlardan soʻng shikastlanganidan suv sathida zoʻrgʻa turgan kemalarda dengizchilar Yamaykaga yetib kelishdi. 1503-yil 25-iyun kuni Kolumb Yamaykaning shimoliy sohilida gavan topib choʻkayotgan kemalarni sayozlikka yonma — yon oʻtirgizdi. Kema tryumlari darhol suvga toʻldi. Yashash xonalarini palubaga koʻchirishdi: hindulardan himoya qilish uchun kema bortlari yoqalab toʻsiqlar oʻrnatishdi. Admiral oʻz odamlarini sohilga istar — istamas yuborardi, chunki ular oʻz hatti — xarakatlari bilan mahalliy aholining nafratini uygʻotishlari mumkin edi. Kolumb shundan havotirda edi. Shunday chora — tadbirlar sababli hindular ispanlarga hayrixohlik bilan munosabatda boʻlishar, mayda — chuyda buyumlar evaziga ularga oziq — ovqat keltirib berishardi, Iyul oyida admiral Diego Mendes nomli dengizchini uchta dengizchi bilan pirogada Espanolaga (dengiz bilan borganda 200 km) yubordi. Pirogada eshkakchi hindular ham bor edi, Kolumb ikkita xat yubordi — birinchi xat Ovandoga bitilgan boʻlib Kolumb oʻz hisobidan unga kema yuborishini soʻragan edi, Keyingi xat qirollarga bitilgan edi. (Yuqorida bu xatdan sitatalar keltirildi) Bu xat juda muhim psixologik hujjatdir. Uni juda toliqqan, kasalmand, oʻzini nazorat qila olmaydigan odam yozganligi koʻrinib turibdi. Bu xatda diniy alahsirash oltin sharafiga aytilgan

hamdu— sano bilan aralashib ketgan, u "oltin mamlakati"ga olib boradigan yo'lni bir o'zi bilishini ta'kidlagan, qirollardan ularning noshukurligi uchun o'pkalagan. Xatda Kolumb yana shunday deb yozgan edi " Vesraguada men dastlabki 2 kun Espanolada 4 yilda ham ko'rmagan oltin nishonalarini ko'rdim. Bu yerdan oltin tashib ketishadi... Oltin bu mukammallik ... va unga egalik qilgan odam barcha narsasini amalga oshira oladi, xatto Ginson ruhini jannatga olib kira oladi. Oradan ko'p oylar o'tdi mavhumlikdan va to'liq bekorchilikdan toliqqan ispanlarning ruhlari tushib ketdi. Qariyb barcha sog'lom dengizchilar Yamaykada tarqalib ketishdi, qishloqlarni talashdi va buzg'unchilik qilishdi. Kotuumb bilan qolgan ozgina ispanlar hindular bilan yumshoq muomala qilishga urinishardi. Aks holda hindular oziq — ovqat keltirib berishni to'xtatib qo'yishlari mumkin edi. Faqat 1504-yil iyun oyining oxirida Kolumb Yamaykadan tirik chiqib ketish umidini yo'qotgan pallada kema keddi. Bu kemani Mendes Kolumb hisobidan sotib olgan va jihozlangan edi. 1504- yil 29- iyun kuni Kolumb Yamaykani butunlay tark etdi. Espanolagacha bo'lgan qisqa yo'lni bosib o'tish uchun u qarshi esgan shamollar tufayli 1,5 oy vaqt sarfladi. Ovando admiralni nomigagina hurmat bilan qarshi oldi va o'z uyiga joylashtirdi. 1504- yil 12- sentabr kuni aka — uka Kolumblar Espanoladan jo'nab ketishdi. Bo'ron ketidan zsgak bo'ronlar grot—machtasidan ayrilgan yolg'iz kemani ta'qib qilardi, shunga qaramasdan 1504-yil 7- noyabr kuni kema Gvadalkvivir daryosi etaklariga kirib keldi. Og'ir kasal bo'lgan Kolumbni Sevilyaga olib kelishdi. U Yamaykadagi musibatli kunlarda o'ziga hamroh bo'lganlarni unutmagan, ularga maosh berilishni talab qilardi: "Bu odamlar benihoya mashaqqatlar va muhtojliklarni boshdan kechirdilar... va ular kambag'al". Ammo 1504-yil 26-noyabr kuni qirolicha Izabella vafot etishi bilan Kolumb o'z huquqlarining tiklanishidan barcha umidlarini uzdi, 1504- yilning oxirida u to'ng'ich o'g'liga saroyga borishga halal berayotgan kasali, o'z daromadini o'rtoqlariga sarflagani

uchun pulg'a muhtojligi to'g'risida yozadi. Faqat 1505 yilning may oyida Kolumb o'sha vaqtda qirol saroyi joylashgan Segoviyaga yo'l oldi. Qirol Ferdinand o'zaro da'volarni hal qilish uchun hakamlar sudi chaqirilishini taklif qildi. Admiral o'z huquq va imtiyozlarini muhokama qilish uchun emas, o'ziga tegishli bo'lgan daromad miqdorini aniqlash uchunchiga sudga rozi bo'ldi. Oradan bir yil o'tdi, lekin Kolumbning ishida o'zgarish bo'lmadi. 1506- yil 19- may kuni Valyadolid shahrida Kolumb o'z vasiyatnomasini imzoladi, 20 - may kuni u kichik monastirda vafot etgan.

### **3.MAGELLAN VA DREYKNING DUNYO BO'YLAB**

#### **SAYOHATLARINING TARIHIY AHAMIYATI**

Fernan Magelyanish (Magellan nomi bilan mashhur) tahminan 1470-yil Portug'aliyada Traz – uz – montish viloyatida oq suyak oilasida tug'ulgan.(1521-yil 27-aprelda Maktan orilda Filipinda vafot etgan.)

Magellan ekspeditsiyasi birinchi dunyo aylana suzishni amalga oshirdi. U 1505- 1512-yillarda Portug'aliya ekspeditsiyasida qatnashib ikki marta (1509-1511) Malakkagacha borgan.

U 1512- 1515- yillar Shimoliy Amerika urishida yarador bo'lib Portug'aliyaga qayib keladi va yarador bo'lib qaytgach Magellan Portugaliya podshosidan yordam so'raydi. Ammo Magellanning iltimosini podsho qondirmaydi. Shu sabali Magellan Ispaniya davlatiga borib, u yerdagi Portug'aliya astranomlari kompaniyasiga a'zo bo'lib, u yerdagi Portug'aliyaning Ruy Faleyeru bilan birga yer shari aholi punktlarining geografik kordinatalarini aniqlash ishlari bilan shug'ullanadi.

1494-yil Ispaniya va Portug'aliya davlatlari o'rtasida shartnomaga (Tordosilyas) ko'ra Ipaniya davlati yer sharini  $460^{\circ}$  G'arbiy uzoqlikdan tutgan meridiandan sharqdagi yerlarini Portugaliya davlati esa  $460^{\circ}$  merdiandan g'arbdagi tadqiqotlar olib borishga kelishilgan edilar.

Ispanlar ammo sharqdagi ziravor (Molukko) orollarini Ispaniyaga arashli bo'lishi kerak degan fikrlar kiritib, Portug'aliya davlati harakat doiralari bo'lgan joylarga shubha bilan qaraydi va shu paytda Ispaniya davlatini Sevil shahrida bo'lib o'tgan Hindiston kengashida Magellan ma'ruza qilib Molukko oroliga Atlantika okeani bo'ylab Janubiy Amerikani Sharqiy sohillari bo'ylab suzib, "Janubiy okean" orqali g'arbga o'tib, tinch okeani orqali suzib, ziravorlar oroliga borish mumkinligi haqida axborot bergan.(1517-yil) Molukko oroliga fg'arbiy yo'l bilan suzib borish to'g'risidagi o'zi ishlab chiqqan loyihani Ispaniya qiroliga taqdim qiladi.

Magellan axboratida habardor bo'lgan Ispaniya podshosi Karil I ziravorlar oroliga borish va uni geografik kordinatasini aniqlash uchun tezda besh kemadan iborat ekspeditsiya uyushtiradi va ekspeditsiyaga rahbar qilib Magellanni tayinlaydi. Magellan boshchiligidagi ekspeditsiya Zirovorlar oroliga borish uchun "Trinoz", "San-Antonio", "Konsension", va "Santyogo" kabi 105-154 tonnali yuk sig'imli 5 ta kemada ikki yilga yetadigan oziq-ovqat g'amlam 1519-yil 20-sentabrda Ispaniyani Gavidana daryosi quyiladigan joyidagi San-Lukarda Barramedo bandargohidan yo'lga 265 odam bilan chiqqan.

Magellanga borilgan kemalar ta'mirlashdan keyin ham talabga to'liq javob beradigan holda emasdi. Portugaliyaning Ispaniyadagi elchisi o'z qiroliga Magellan ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar deb yozgan edi. Magellan kemalariga portugaliyalikhamyurtlaridan ruhsat bergan 5 o'rniga 37 kishi olishga muvaffaq bo'ldi sayohatning boshidayoq juda og'ir sinovlarni yengib, 60 kunlik tinimsiz yomg'irlardan so'ng kemalar 1519-yil 13-dekabrda Rio de Jeneyro kurfaziga keldi.

Sayohatchilar okean bo'ylab g'arbiy janubga suzib, Kanar orolidan va Braziliyaing sharqiy sohillaridan janub tomon suzib Guanabar orqali o'tib La-Plata quyilmasiga kelib, bu year biror bo'lib, yerli aholi bilan tanishib, ularni urf-odatlarini savdo-sotiq faoliyati haqida ma'lumotlar oldi (1520 yil dekabr)

Sayyohlar bu yerdan chiqib San Matias ( $410^{\circ}$  J.k) qo'ltig'i orqali o'tib San Xorhe qo'ltig'iga ( $470^{\circ}$  janubiy kenglik) kelib qishlashdi. Sayyohlar bu yerda yashovchi baland bo'yni hindular bilan tanishdilar.

Hindlarni sayyohlar "patagon" lar (ispanchasiga yirik oyoqlar) deb atadilar. Shundan beri bu joyni Patagoniya ya'ni yirik oyoqlar vatani deb ataladi. Sayyohlar San Horhedan janubga tomon suzib, uzoqdan yorug' chiqayotgan yerlarni qaradi. Bu joyni Magellan "Olovli yer" deb atadi.

Ekspeditsiya a'zolari "Olovli yer" oroliga yetmasdan hozirga Pilar buruni yaqinidan g'arbga tomon suzib, Tinch okeaniga o'tib shimol tomon suzib, Tayto yarim oroli ( $479^{\circ}$  J.K) Mora oroli ( $38^{\circ}$ .  $30^{\circ}$  j.k) dan o'tib  $30^{\circ}$  g'arbga tomon

burildi. Shu yergacha Tinch okeanida 15 kun suzadi. Bu vaqtda havo ochiq okean tinch bo'lgan. Shuning uchun bu okeanga Magellan Tinch okeani deb nom bergan. Sayohatlar g'arbga tomon Tinch okeanidan suzib janubiy Neziya, Mikroneziya sochilma orollari ( $16^{\circ}$  j.k) Tuvuran ( $10^{\circ}$   $40^{\circ}$  j.k) kabi orollarni ko'rgan. 1521-yil 6-mart kuni ekspeditsiya a'zolari Marian gruppasi orollari janubdagi Guan va rota orollari ( $12^{\circ}$  sh.k) dan o'tib hozirgi Filipin (somar) dengizidan g'arbga tomon suzib Filipin orollarining janubdagi Homoxon ( $10^{\circ}$  sh.k Xolmehara) orollariga kelganlar. Sayyohlarni bu yer aholisi yaxshi kutib olgan va palma daraxtidan tayyorlangan vino bilan mehmon qilganlar. Bu orolga Magellan San-Losar arxipelagi deb nom bergan. Bu yerda oltindan tayyorlangan qurollar va oltin taqinchoqlar ko'pligi ularni qiziqitirdi.

Sayyohlar Yaxshi Umid burnidan Atlantika okeaniga shimoliy g'arbga tomon suzib 1081 kun davom etgan sayohatdan so'ng 1522-yil 6-sentyabrda Ispaniyani sanlukar portiga "Viktoriya" kemasida jami 265 kishidan faqat 18 tasi qaytib keldilar.

Hullas, Fernand Magellan rahbarligida chiqqan ekspeditsiya a'zolari Ipaniyadan Atlantika okeani orqali, janubiy Amerika sharqiy sohillari bo'ylab janub tomon suzib, janubiy Amerikani janubiy tomonini aylanib, Tinch okeaniga o'tib Ziravorlar oroliga borish mumkinligini isbotladi. Tinch okeanidan Polenziya, Mikroneziya, Filipin, Klimanton, Molukka kabi bir guruh orollar va ulardan bir necha mayda orollarni kashf qilgan. 1522-yil 6-sentyabrda ekspeditsiya a'zolari Ispanyaga qaytib, dunyo aylana suzishini yakunladilar. Bu ekspeditsiya yerning sharsimonligini amalda uzil-kesil isbotlab berdi. Yagona dunyo okeani mavjudligini, yer yuzasining ko'p qismi suv bilan qoplanganini ko'rsatdi.

Magellan nomini abadiylashtirish maqsadida janubiy Amerika materigi bilan Olovli yer arxipelagi orasidagi bo'g'ozcha Magellan nomi berilgan. Bu bo'g'oz Atlantika okeanini Tinch okeani bilan bog'laydi. Uzunligi 575 km Punta Arenas (Chili) porti bor. Bo'g'oz ilk bor 1520-yili uni kesib o'tgan Portugal

dengizchisi Fernan Magellan nomi bilan atalgan. Yana undan tashqari, dastlabkan bulutlari deb atalgan galantikamiz “Samon yo’li” ning tabiiy yo’ldoshlari (katta va kichik galaktikalar) osmonning janubiy yarim sharida kuzatilib, kattasini ko’rinma o’lchami oydan 10 marta kichikligini esa 5 marta katta. F. Magellanning okeanlar bo’ylab sayohati daftarida tasvirlangan va uning nomini abadiylashtirish maqsadida unga Magellan bulutlari deb atalgan.

Frensis Dreyk 1540- yil Angliyaning Kroundeyn fermasida (Tenviston yaqinida) Devonshir grafigida tug’ildi. Ferma Frensisning ota-onalariga meros sifatida o’tgan bo’lib, ferma joylashgan hudud esa Djon Rossiga tegishli edi. Ferma egalari uni ijaraga olgan edilar. Ayrim tarixiy manbalarga ko’ra yoshligidan Frensisning otasi dengizchi bilan ularning oilasida hammasi bo’lib o’n ikkita farzand bo’lib, Frensis ularning ichida eng kattasi bo’lgan.

Frensis Dreyk “Laylak” kemasida sirli tarzda amalga oshirgan suzishi davomida deyarli yangi ekspeditsiyaga tayyorlandi. U Panama qirg’oqlarini yaxshi o’rgandi. o’zi uchun qulay bo’lgan marshutlarni belgilab oldi. Panama qirg’oqlarida aniqlangan “Fazonlar porti” ni kelgusi ekspeditsiya uchun tayanch nuqtasi sifatida belgilab oldi. Ushbu bandargoh ekspeditsiyasi uchun ham qulay bo’lib, uning qirg’oqlari daraxtlar va mevali daraxtlar bilan to’la edi. Dreyk bu qirg’oqlarni tozalashni va u yerga oziq- ovqat zahiralarini yashirib qo’yishni buyurdi. Bu ko’rfaz shamol va kuchli tabiiy ofatlardan ham yaxshi himoyalangan bo’lib, zarur vaziyatda undan vaqtincha yashash ham mumkin edi. Bu ishlarni barshasini Dreyk sir tutib, ekspeditsiyaga tayyorgarlikni yakunladi va ekspeditsiyani 1572-yilning may oyida boshladi. 1572- yil 24-mayda Dreyk 70 t yuk ko’taruvchi “Pasha” va 30 t yuk ko’taruvchi “Laylak” kemalarida Plimut ko’rfazidan chiqdi. Ushbu ekspeditsiya dunyoning eng kuchli flotinning manfaatlariga zid edi. “Laylak” kemasini uning ukasi Djon boshqardi. Kemalar bir yilga yetgulik oziq- ovqat zahirasiga ega bo’lib, artileriya bilan yaxshi qurollangan edi. “Pasha” kemasining bortida pumaslar bo’lib, undan narus ham tayyorash va dengizda, qirg’oqda foydalanish uchun ham qulay edi.

Ekspeditsiyaga 73 nafar dengizchi qatnashib, ularning yoshlari 30 yoshgacha edi.

Kemalar 12 kundan so'ng Kanar oroliga yetib keldilar, 37- kuni esa qarib dengizida Dominika va Gvadelupa orollarining o'rtasiga yetib keldilar. Dreyk Dominika orolidan 5 km uzoqlikda to'xtashni buyurdi. Bu ekspedisiya davomidagi birinchi to'xtash edi. Bu yerda dengizchilar kemalarin ta'mirlashib, tez suv zahiralarini to'ldirib oldilar. Uch kungi dam lishdan so'ng Dreyk kemalarni 1-iyulda Kabo- de-la – Vela tomon yo'l oldilar va 12-iyulda fazonlar ko'rfaziga yetib keldilar.

Dreyk qirg'oqqa yaqinlashib uzoqdan tutun chiqayotganini ko'rdi. Qirg'oqda daraxtlardan biriga qoqib qo'yilgan taxtaga quydagi yozuvlar bitilgan edi. "Kapitan Dreyk "agar taqdir sizni ushbu ko'rfazga olib kelsa, tezda bu yerdan keting, ispanlar bu yerni bilib qoldilar va siz qoldirgan hama narsalarni olib ketdilar. Men bugun 7-iyulda ketyapman. Sizni yaxshi ko'ruvchi do'stingiz Djon Gappett. Dreyk Gappettini bilar edi. U Dreykni havf haqida ogohlantirib qo'ygan edi.

Albatta eng to'g'ri yo'l ketish edi. Lekin Dreyking hohishiga ko'ra havfli joylardan ham o'zini olib qochmas edi. Dreyk qolishga qaror qildi. Boshqa ko'rfaz eng kami 100 km uzoqlikda edi. Ertasi kutilmaganda ko'rfazga kema kirib keldi. Uning ho'ayini Eduvard Horsi bo'lib, kapitani esa Djeym Rens edi. Kemada 30 kishi bor edi. U Rensga birga –birga ekspeditsiyada ishtirok etishini taklif qildi. Rensning ixtiyorida u bosib olgan yana ikki ispan kemasi bor edi.

Bir haftalik tayyirgarlikdan so'ng 20- iyulda kemalar yo'lga chiqadilar. Uch kundan so'ng ular mayda uchta buxstalar bilan qoplangan orolga duch keladilar. U yerda ikkita ispan kemasini uchratadilar. Ularga negrlar kapitanlik qilib, ular muhim axborotlar berdilar.

Masalan, orolining aholisi juda bezovta bo'lib, yangi kelgan kemalardan havfsirayotgani shundaki, so'ngi paytlarda ispan mustamlakada yashirinib yurar, ularning soni tobora ortib ular mustamlakachilarga katta muommolar keltirayotgan

edilar. Qochoq qullar maroklar deb nomlanib, ular ispan mstamlakachligining boshqaruvidan juda qo'qar edi. Dreyk endi bu yerdan Nombre- de- dias oroliga tomon yo'l oldi. 29- iyulda u bu yerga yetib kelib o'z asirlariga qurol tarqatib berdi kechasi saot 3<sup>oo</sup> da orol shahriga hujum boshladi. Kutilmaganda suvda ikkita ispan kemasi paydo bo'ldi. Shunga qaramasdan Dreyk o'z kishilariga u shahar gubernatorining uyiga yo'l oldi. Bir qancha boyliklarni qo'lga kiritib Dreyk va uning kishilari Bostimentos oroliga yo'l oldilar. Maroklardan biri unga Chegres daryosi qarib dengiziga chiqishni, unga pichan kemalar kelsa olishi mumkinligini, unga Venta-Kruz shahriga va undan Panama orqali Nomrde-de – Diasga qimmatbaho metallar olib kelishini aytib berdi. Bunday operatsiyani faqat qishda amalgam oshirish mumkin, yozda esa bu boyliklar Panama omborida saqlanadi yoki Nobre- de – Diasga qo'riqlash yo'li bilan olib kelinadi, deb tushuntirdi Marok.

Bu davrda Dreyk 250 t kuchga ega bo'lgan ikkita kemani qo'lga oldi va Kartaxon shahriga yo'l oldi. Yo'lga yana bir nechta ispan kemalarini qo'lga kiritdi. O'z yo'lini davom ettirib u Magdalena daryosi bo'ylab Konutbiyaning hududiga kirib keldi. U qirg'oqqa chiqib Ispaniyaga jo'natishga tayyor turgan ulkan oziq- ovqat omboriga duch keldi. Lekin Dreyk o'z yo'lida katta qiyinchiliklarga duch keldi. Masalan, qandaydir kasallik bilan ko'pchilik matroslar, ular qatori uning ukasi Djon ham, vrach ham halok bo'ldi. 1573-yil yanvarda Dreykka hizmat qiluvchimaroklar Nombre – de – Diosga Ispaniyadan flot kelganligini habar qildilar. Dreyk ularni asirga oldi.

Dreykka mahalliy maroklar katta yordam berar edilar. Ular ma'lumotlar keltirar, yangi yo'llar va joylarni izlab topishar, oziq – ovqat qidirishga va boshqa maroklar bilan til topishishga yordam berar edilar. O'z yo'lini maroklar yordamida davom ettirib Dreyk Tinch okeanidan sariq suvni ko'rdi. Ular Angliyaliklardan birinchi bo'lib Tinch okeanini ko'rdilar. Yevropaliklar uni "Ispan dengizi" deb atar edilar.

Dreyk o'z kishilari bilan yo'lni davom ettirib, tez orada chiroyli tepalik joyga chiqdi. Endi ular Panamaga juda yaqin joyda turar edilar. Tez orada shahar cherkovinng gumbazlari ko'rindi. 14- fevralda Dreyk Venta –Kruz ahahriga olib boruvchi yo'lga yetib keldi. 64 nafarli karvon Ispaniya tomon yo'lga chiqayotgani haqida o'z maroklaridan biri habar qiladi. Dreyk kemani qo'lga oladi. Dreyk fransuzlar bilan kelib Nombre – de – Diosga birga hujm qilishga kelishib oladilar. Tushgan o'ljani teng taqsimlashga kelishib oladilar. Tarkibi 10 nafar fransuz, 25 nafar ingliz va 5 nafar marokdan iborat edi. Ular g'alaba qilib, katta boylikni qo'lga kiritadi. O'lja teng bo'linadi. Dreyk ekspeditsiyasi o'z vazifasini bajaradi va orqaga o'z yurtiga qaytishga qaror qiladi. Ekspeditsiya boshlangandan 442 kun keyin 1573-yil 9- avgustda Dreyk Plimutko'rfaziga qaytib keldi. Bu kun yakshanba bo'lib, Dreykning qaytganligi haqidagi habar tez tarqaldi. Ekspeditsiyaga jo'nagan 74 kishidan 40 kishi qaytib keldi.

Dreyk eng boy- badavlat kshiga aylandi. Endi u badavlat xo'jayinlarga va kema egalariga bo'ysunmas edi. Endi u yana ham yirikroq ekspeditsiyalarni rejalashtira boshladi. U Plimit shahrida uy sotib oldi, o'ziga tegishli bo'lgan uchta kemaga ega bo'ldi.

Frensis Dreyk Vest- Indiyaga qilingan qaroqchilik ekspeditsiyasiga rahbarlik qildi. 1577- 1580 yillarda Magellandan ikkinchi bo'lib dunyo bo'ylab suzib chiqqan sayyohdir. Ispanlarning “Yengilmas armada” sini tor –mor qilishda amalda ingliz flotini boshqargan yili 1588-yil vitse –admireli unvonini oldi.

Frensis Dreyk nomiga olovli yer arhipelagi va janubiy shotland orollari oralig'ida joylashgan Atlantika okeani, Tinch okeani bilan bog'laydigan bo'g'oz nomiga berilgan, Dreyk bu bo'g'ozni 1578-yil suzib o'tgan.

## XULOSA

G'arbiy Yevropalik sayyohlarni geografik kashfiyotlari jahon taraqqiyotiga benihoya katta ijobiy ta'siri bo'ldi. Kashfiyotlar jahon savdo yo'llarini va markazlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Masalan, Buyuk ipak yo'lini oladigan bo'lsak, kashfiyotlardan avval davlatlararo iqtisodiy aloqalar shu katta yo'l orqali amalgam oshirildi. Endi savdo iqtisodiy aloqalar o'rta dengizi bo'ylab emas, balki dengiz yo'llari orqali 'tadigan bo'ldi. Kashfiyotlarning yana bir ta'siri Buyuk Ipak yo'lini buzilishga olib keldi.

Ilgari yevropa savdosida asosiy o'rin tutgan o'rta dengizi, geogrefik kashfiyotlardan so'ng o'z ahamiyatini ancha yo'qotdi. Asosiy savdo yo'llari Atlantika okeani va shimoliy dengizga ko'chirildi. Ilgari Yevropadagi savdo- sotiq ishlari eng taraqqiy qilgan Italiya o'rnini boshqa mamlakatlar Portugaliya, Niderlandiya va Angliya egalladi. Yangi ochilgan yerlar bilan savdo aloqalari jahon savdosini vijudga keltirdi. Gegrafik kashfiyotlar kashf etilgan "Yangi dunyo" "Eski dunyo" madaniy o'choqlari orasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatishga imkoniyat berdi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaliklarning dunyo hokimiyatidagi tasavvurlarini kengaytirib, bilimlaini oshirdi. O'zga qit'alar va xalqlar to'g'risidagi ko'lab afsonalar noo'rin fikrlarni chilparchin qildi.

Ilmiy bilimlarni rivojlantirish Yevropada sanoat va savdoni yuksaltirish, moliya sohasida bank va kredit ishlarida yangicha uslublar yaratilishiga imkon berdi. XV asr ikkinchi yarmida O'rta dengiz orqali bo'ladigan savdo qattiq inqirozga uchradi. Sharq mollari arablar, vizantiyaliklar va boshqa xalqlarning qo'lidan o'tganligi tufayli ularning narhi benihoya oshib ketardi. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi savdogarlar juda uzoqdagi Sharq bozorlariga borishlari amrimohol edi. Yaqin Sharqning turklar tomonidan istilo qilinishi levant ahvolini yanada mushkullashtirdi. Turklarning talonchiligi, dengiz qaroqchligi, savdo kemalaridan, karvonlar va bozorlardan

juda ko'p hilma - xil soliqlar olinishi tufayli O'rta dengizning sharqiy qismi bilan savdo qilishi xavfli, kam foyda keltiradigan bo'lib qoldi va bu savo ahyon - ahyondagina bo'lib turdi.

Hindistonga olib boradigan, hali turklar bosib olmagan birdan - bir yo'l – Misr orqali va Qizil dengiz orqali boradigan yo'l qolgan edi xolos. Ammo bu yo'l arablarning qo'lida edi. G'arbiy Yevropaning dengizi va savdogarlari arablar bilan turklarga duch kelmasdan Hindistonga boradigan boshqa yo'l topish ustida tobora ko'proq bosh qotira boshadilar. Afsonaviy Hindistonni qidirib topishga yevropaliklarni yana boshqa bir sabab ham qiziqtirgan edi.

Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishining o'sishi, tovarlarning yetishmasligi, hamda kumush, ziravolar va fil suyagi, qimmatbaho mo'yna, morj tishini topish maqsadida yangi yerlarni qidirish, Yevropadan Hindistonga va Sharqiy Osiyoga yangi savdo yo'llarini axtarish kabilar ekspeditsiyaga borishning umumiy sabablari bo'lgan.

1519 - 1522 yillarda Fernan Magellan va uning safdoshlari Amerikaning janubiy chekkasi bo'ylab bo'g'oz orqali (keyinchalik Magellan bo'g'oz deb ataldi) dunyo bo'lab birinchi sayohat qildi. Frensis Dreyk – ingliz dengiz sayyohi, 1588 - yilda vitse - admiral, 1577 - 1580 yillarda Magellandan so'ng ikkinchi bo'lib dunyo bo'ylab suzib chiqqan.

Geografik kashfiyotlar va mustamlakalarni bosib olish Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishni o'sishiga yordam berdi. Lekin bu narsa Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomidagi qulligi, taqqirlanishi og'ir mehnatlari evaziga bo'ldi. Ular Yevropada yangi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni yaratilishiga hizmat qildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T; Manaviyat, 1998.
2. Fradkin N.G. Geograficheskie otkritiya n nauchnoe poznaninya zemlp. Moskva.; 1972.
3. Fradkin N.G. Obraz zemli. Moskva., 1974.
4. Kindrva. I. Vritmax chernoy Afriki . Moskva.;Nauka. 1985.
5. Liyelays A. ”Dengiz sargushatlari” Toshkent., 1978.
6. Malov. V. I. Zatoryapnge ekspeditsii. Moskva.;«Prosvepdenie» 1980.
7. Malov.I. Legendi v^dut k otkrmtiem. M.1982.
8. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T; Manaviyat. 2000.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I-II-III-IV-V-VI tom. 2000-2005.
10. Ocherki istorii geograficheskoy nauki v Rossii. Moskva.;1976.
11. Russkie ekspeditsii po izuchenii severnoy chasti Tixogo okeana vo vtoroy polovine XVIIIv. Moskva.;Nauka. 1989.
12. Semyonov V.F. O‘rta asrlar tarixi. Toshkent. O`qituvchi. 1973.
13. Svet Ya.M. Okeanlar osha sayoxat.Toshkent.,«O‘zbekiston».1975.
14. История средних веков. Том-2. Москва.;1991.
15. Магидович И.П. Магидович В.П Очерки по истории географический открытий. Том-2. Москва., 1983.